

## JAMIYAT VA SHAXSNING O'ZARO MUNOSABATI

Berdiyev Muzaffar Norqulovich

*Toshkent shahar 245-maktabi Huquq va Tarbiya fanlari o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jamiyat iqtisodiy negizi, mulkdor bo'lish huquqi va fuqarolik jamiyat, jamoat birlashmalari va ularning huquqiy xolati va uning konstitutsiyaviy asoslari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *iqtisodiy negiz, jamoat birlashmalari, oila, mulk, moddiy ne'matlar, mulk huquqi, fuqarolik jamiyati.*

Jamiyat va shaxs munosabatlari iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy sohalarda o'z aksini topadi. Bunda jamiyatning iqtisodiy negizi, jamoat birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalarining o'rni katta.

Iqtisodiy negiz deganda, davlat iqtisodiy hayotining turmush asosini qamrab olib, tuzum mavjud bo'lgan mulk shakllarining xarakterini, ijtimoiy yo'nalishga qaratilgan ishlab chiqarish maqsadini, ijtimoiy mahsulotning adolatli taqsimoti tamoyilini va xalq xo'jaligini boshqarish asoslarini belgilab beradigan mulkiy munosabatlar tushuniladi.

Iqtisodiy hayotning negizini tashkil etuvchi mulk - ishlab chiqarish vositalarini va mehnatning barcha mahsulotlarini o'zlashtirish jihatidan kishilar o'rtasidagi munosabatlardir. Bu munosabatlar sinflar va ijtimoiy guruhlarining ishlab chiqarish negizida tutgan o'rnini, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish usulini xarakterlaydi. Mulkiy munosabatlar ashyoviy (mulkiy) munosabatlar tarzida yuridik jihatdan boshqarilgan yoki rasmiylashtirilgan holatdan keyin ular mulk huquqi shaklini oladi, bu esa mulkdorga undan foydalanish va uni tasarruf qilish vakolatini beradi.

Mulkiy munosabatlar jamiyat bazasini tashkil qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning asosiy qismini tashkil etib, muayyan tipdagi ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri va sinfiy mohiyati haqida umumlashgan tasavvur beradi.

Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Mulkiy huquqining egasi (subhekti) - mulkdor o'ziga taalluqli mulkidan o'z xohishiga ko'ra o'z ixtiyoricha foydalanadi, uni egallaydi va tasarruf etadi, mulkiy va mulkiy xarakterga ega bo'lmagan shaxsiy huquqlarga ega bo'ladi. Har bir mulkdor mazkur mol-mulknini mulk qilib egallab olganidan keyin, uni o'z xohishicha tasarruf etishga sotishga, vasiyat qilib qoldirishga, hadya etishga, ijaraga berishga undan garov sifatida foydalanishga va unga doir qonunlarga zid bo'lmagan bitimlarni tuzishga haqlidir.

Mulkdan foydalanish - undan maqsadga muvofiq, mulkning tayinlanishiga qarab, qonun talablariga muvofiq o'z ustav (nizom)larida ko'rsatilganidek, jamiyat va davlat manfaatlariga hamda yuridik shaxslarning maqsadlariga xilof ravishda kelishuvlarga yo'l qo'ymaslik asosida amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining mutloq mulki hisoblangan bu munosabatlar Respublikamizning Konstitutsiyasidan tashqari, mulkchilik, yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari to'g'risidagi, atmosfera havosini, tabiatni, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunlari bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik jamiyati – bu shunday jamiyatki, unda kishilar o'zaro bog'liqdirlar hamda birlari bilan va davlat bilan mustaqil ravishda munosabatda bo'ladilar.

Fuqarolik jamiyatida xususiy mulkchilik g'oyat katta ahamiyatga ega. Chunki u mulkdor sinfda davlat hokimiyatiga nisbatan o'zini mustaqil sezadi, u qonunda ko'rsatilgan asoslarda o'z manfaatlarini hisobga olib, xohlagan ishi bilan shug'ullanishi, istagan kasbini tanlashi, o'zi tanlagan joyda yashashi mumkin.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga ko'ppartiyaviylik, siyosiy hayotning va siyosiy institutlarning, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi, o'zini-o'zi boshqarish organlari mavqeining balandligi, jamiyatni boshqarishda ommaviy axborot vositalari rolining kattaligi kiradi.

Demak, fuqarolik jamiyat – bu teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini amalga oshirishga ko'maklashadigan jamoat institutlarining tizimidir.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimida siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisod ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini ruyobga chiqarishda katta rolg' o'ynaydilar. Jamoat birlashmalariga - siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar, urush qatnashchilari va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-mahrifiy, jismoniy tarbiya, sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, fondlar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

Jamoat birlashmalari o'z faoliyat doiralariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

Respublika jamoat birlashmalari;

Mahalliy jamoat birlashmalari;

Xalqaro jamoat birlashmalari.

Respublika jamoat birlashmalariga o'z nizamida belgilangan faoliyatini butun O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan, kamida uch ming ahzosi bo'lgan jamoat birlashmalari kiradi.

Mahalliy jamoat birlashmalariga – viloyat, tuman, shahar, qishloq jamoat birlashmalari kiradi.

Xalqaro jamoat birlashmalari – O'zbekiston Res'ublikasi va bitta yoki undan ko'roq xorijiy davlat hududida faoliyat ko'rsatadigan jamoat birlashmalaridir.

Fuqarolik va jinoiy qonunlar majmualarida jamoat birlashmalarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi qoidalar mustahkamlangan. Davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun bu qoidalar majburiydir.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi T. 1999.
2. O'zbekiston res'ublikasi «Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonuni T. «Adolat» 1994.
3. A.Saidov, U.Tojixonov. «Davlat va huquq asoslari». T.1999.